

Q.KARIMOVA

# YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI

4-SINF O‘QUVCHILARI  
UCHUN AMALIY  
MASHG‘ULOTLAR DAFTARI

MAJBURIY  
NUSXA



TOSHKENT-2013

44.200.58- Uygʻa xarakati haqqida

UOʻK: 351.811.122  
: 39.808  
Y-58

Yoʻl harakati xavfsizligi: 4-sinf oʻquvchilari uchun amaliy mashgʻulotlar daftari/«Avtohamroh» jurnali; tuzuvchi muallif: Q. Karimova. — Toshkent: Yurist-media markazi, 2013. - 40 b.

ISBN 978-9943-387-90-4

UOʻK: 351.811.122  
: 39.808

**Tuzuvchi muallif:**

Qumrixon KARIMOVA, «Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri, filologiya fanlari nomzodi


**Taqrizchi:**

Xayrullo MAMATOV, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilingan, suratlar va sharhlar «Avtohamroh» tahririyatiga tegishlidir. «Avtohamroh» jurnali tahririyati rozilgisiz kitobni oʻzga usulda chop etish va koʻpaytirish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-387-90-4

© «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2013 yil  
© «Avtohamroh» jurnali



## Aziz bolajon!

Ushbu kitobcha Sizga yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatadi, yo‘llarda bexatar yurishga, hushyor bo‘lishga va ko‘chadagi xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanishga yordam beradi. Kitobchadagi mashqlarni bajarsangiz, o‘z qobiliyatingiz, bilimingizni boyitasiz hamda ko‘cha va yo‘llarda xavfsiz harakatlanasiz.

Sizga omad tilaymiz!



# 1-MASHG'ULOT

## KO'CHA VA YO'LLARDA XAVFSIZ HARAKATLANISH QOIDALARI

### 1-Topshiriq

Ko'cha va yo'llarda nimalar qilish mumkin, nimalar qilish mumkin emasligini eslang.




«Sizning javobingiz» nomli katakka «+» (mumkin) yoki «-» (mumkin emas) belgisini yozing. Javobingiz to'g'ri yoki noto'g'riligini ustozingizdan so'rab, to'g'ri javobni keyingi katakka yozing.

No	Ish-harakat	Sizning javobingiz	To'g'ri javob
1	Stadionda, bolalar maydonchasida yugurish, bir-birini quvish, o'ynash		
2	Svetoorning yashil chirog'i miltillab turganda yo'lni kesib o'tishni boshlash		
3	Yo'l yaxshi ko'rinib turgan joydan to'g'ri chiziq bo'ylab, yugurmay, tez-tez qadam tashlab, yo'lning qatnov qismini kesib o'tish		
4	Sizga zarur bo'lgan avtobus, tramvay, trolleybusga ulgurish uchun yo'lning qatnov qismidan bekat tarafga yugurish		
5	Chorrahadan diagonal bo'ylab o'tish		
6	Yo'lning qatnov qismida o'rtoqlaringiz yoki qarindoshlaringiz chaqirsa, alanglash		
7	Agar yaqinlashayotgan transport vositasi bo'lmasa, yo'lning qatnov qismini «zebra» chizig'i bo'ylab kesib o'tish		
8	Yo'lning qatnov qismiga koptok ortidan yugurib chiqish		
9	Yo'lning qatnov qismidan svetoorning yashil chirog'i yonganda kesib o'tish		
10	14 yoshga to'lgandan keyin yo'lda velosipedda yurish		
11	Yo'lning qatnov qismidan atrofqa qaramasdan, faqat to'g'riga qarab o'tish		
12	Shoshib turganda, yo'lning qatnov qismidan egri chiziq bo'ylab kesib o'tish		

No	Ish-harakat	Sizning javobingiz	To'g'ri javob
13	Yo'l qatnov qismidan kesib o'tishda avtobus (trolleybus)ning orqasidan o'tish		
14	Kajavali mototsiklda yo'lovchi sifatida bog'langan shlem kiyib yurish		
15	Yo'l qatnov qismining «Bolalar» nomli yo'l belgisi o'rnatilgan joydan o'tish		
16	12 yoshga to'lgandagina avtomobilning oldi o'rindig'ida yo'lovchi sifatida o'tirish		
17	Yo'lning qatnov qismini svetoorning qizil chirog'i yonganda kesib o'tish		
18	Yo'ldan o'tishda tramvayning oldidan aylanib o'tish		
19	Yo'lni yer osti yoki yer usti piyodalar o'tish joyidan kesib o'tish		
20	Yo'lning qatnov qismini istalgan joydan, atrof va avtomobillar ko'rinmaydigan joydan kesib o'tish		
21	Yo'lni «zebra» chizig'i bo'ylab, transport uchun o'rnatilgan svetoorning yashil chirog'ida kesib o'tish (agar piyodalar uchun svetofo bo'lmasa)		
22	Temir yo'l kesishmasida poyezd ko'rinmasa, shlagbaum ostidan o'tishga urinish		

## O'Z QOBILIYATINGIZNI BAHOLANG


Agar hamma savollarga to'g'ri javob bergan bo'lsangiz uchta doirani bo'yang. Agar uch marta noto'g'ri javob bergan bo'lsangiz, ikkita doirani bo'yang. Noto'g'ri javoblar uchtdan ortiq bo'lsa, 1 ta doirani bo'yang. Ustozingizdan qayerda xato qilganingizni so'rang. To'g'ri javoblarni doimo yodingizda saqlang!



## 2-Topshiriq

Rasmda turar joydagi hovli tasvirlangan. U yerdagi 5 ta xavfli joyni qizil qalam bilan belgilang va ular nima uchun xavfli ekanligini tushuntiring.

Yo‘l belgisi ostiga uning nomini yozing.




### **YODDA TUTING!**

Xavf-xatar faqat ko‘chalarda emas, balki aholi yashash joylarida, hovlilarda, ko‘chalar, yo‘l va yo‘laklarga ajratilmagan joylarda ham uchraydi. Bu joylarda avtomobillar ham, piyodalar ham yurishlari mumkin. Doimo hushyor va ehtiyotkor bo‘ling!


### 3-Topshiriq

Rasmdagi piyodalarga qarang. Ular shahar tashqarisida yo‘l yoqasidan harakatlanmoqdalar. Ularning harakatlarini rasmlar tagiga «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» degan so‘zlar bilan baholang. Piyodalar yo‘l chetidan yoki yo‘l yoqasidagi yo‘lakdan yurishlarida qanday xavf borligini tushuntirib bering.




## 4-Topshiriq

Rasmlarga qarang.



Bu yerda qanday xavf bo'lishi mumkinligi haqida gapirib bering.



Bu rasmda qanday xavf ko'rsatilgan?

Quyidagi savollarga o'ylab ko'rib, javob bering.

1. Yo'lning qatnov qismini kesib o'tish vaqtida yana qanday xavfli holatlar bo'lishi mumkin?

2. Piyodalar yo'lagi (trotuarda) xavfli holatlar bo'ladimi?

3. Chorrahadan svetoforning yashil chirog'ida o'tayotganingizda qanday xavfli holat bo'lishi mumkin?



4. Piyodalar o'tish joylarining qanday turlarini bilasiz?


5. Ko'chada yurganda baxtsiz va noxush hodisalarga uchramaslik uchun nimalarni yodda tutish kerak?

### **SIZ BUNI BILISHINGIZ KERAK!**

Yo'lning qatnov qismidan o'tayotganingizda sekin kelayotgan avtomobil ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun yo'ldan o'tayotganda juda ehtiyotkor va hushyor bo'ling!

### **5-Topshiriq**

Rasmga e'tibor bilan qarang. Agar qor, yomg'ir yog'sa, ko'cha ho'l, tuman, sirpanchiq bo'lsa, yo'lda qanday xavfli holatlar uchrashi mumkin? Ob-havo yomon bo'lganda ko'chaning qatnov qismida o'zingizni qanday tutasiz? Qanday predmetlar yoki holatlar yo'l ko'rinishini yomonlashtiradi?



## 2-MASHG'ULOT

### SVETOFOR VA YO'L BELGILARI


#### 1-Topshiriq

Rasmga e'tibor bilan qarang va savollarga javob bering.

Rasmdagi svetoforlar qanday farq qilinadi?

Bu svetoforlar kimlar uchun o'rnatilgan?

Yo'lning qatnov qismidan qanday o'tish kerak?



## 2-Topshiriq

Quyidagi 2 ta savolga javob bering.

1. Svetoforning yashil miltillab yonib turgan chirog‘i nimani bildiradi? U yonib turganda yo‘lning qatnov qismidan o‘tishni boshlash mumkinmi?

To‘g‘ri javobning tagiga chizing.

**Ha**

**Yo‘q**

2. Svetoforning miltillovchi sariq chirog‘i nimani anglatadi? U yonib turganda yo‘lning qatnov qismidan o‘tish mumkinmi?

**Ha**

**Yo‘q**

## 4-Topshiriq

Ushbu yo‘l belgilarini chizing va bo‘yang. Ular tagiga nomlarini yozing.

1. Ogohlantiruvchi belgilar UCHBURCHAK shaklida.



\_\_\_\_\_



\_\_\_\_\_

2. Taqiqlovchi belgilar DOIRA shaklida.




\_\_\_\_\_



\_\_\_\_\_


3. Transport vositalarining taniqlik belgisi



\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


4. Axborot-ishora belgisi



\_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_

5. Buyuruvchi belgilar DUMALOQ shaklida.



---


---



---


---

6. Servis belgilari TO'G'RI TO'RT BURCHAK shaklida.



---

---



---

---

## 5-Topshiriq

Bir xil guruhdagi yo‘l belgilarini to‘g‘ri chiziq bilan birlashtiring. Bu chiziqlar bir-biri bilan kesishmasligi kerak. Agar astoydil harakat qilsangiz, bu topshiriqni, albatta, bajarasiz.



Bu belgilar nimani bildirishini aytib bering.

## 5-Topshiriq

Yo‘l belgilariga e‘tibor bilan qarang va savollarga javob bering.

1. Bolalarning rasmi chizilgan bu belgi kim uchun o‘ylab topilgan.

Javobni yozing.



---

---

---

2. Bu belgi qayerlarga o‘rnatiladi?  
Javobni yozing.

---

---

3. Bu belgi o‘rnatilgan joydan yo‘lni kesib o‘tish mumkinmi?

Ha.

Yo‘q.

To‘g‘ri javobning ostiga chizing.

4. Bu ikki yo‘l belgisi nimasi bilan farqlanadi?  
Bu belgilar kimlar uchun ekanligini aniqlang va ta-  
giga yozing!



---


---

### 3-MASHG‘ULOT


## CHORRAHA TURLARI

### 1-Topshiriq

Turli chorrahalar ifodalangan tasvirga ahamiyat qarating. Xayolan o‘ylab ko‘ring-chi, №2, 3, 4 chorrahalarini qaysi harfni eslatayapti? Ushbu harflarni katakchalarga yozib chiqing. Chorrahani qanday kesib o‘tish mumkin?




Bu to‘rt tomonlama chorraha.




- simon






№3




- simon



№4



- simon



№5

2 ta chorraha


## 2-Topshiriq

Svetoorning chiroqlarini bo‘yang. Boshqarilmaydigan piyodalar o‘tish joyida miltillab turuvchi svetofor chirog‘ini nur tarqatayotganday tasvirlang.



## 4-Topshiriq

Rasmga avtomobillar burilish yo‘lini strelka bilan chizing. Buni qanday bilganingizni gapirib bering.



### **YODDA TUTING!**

Haydovchilar svetoorning yashil chirog‘ida burilishlari mumkin. Siz ham yashil chiroqda o‘tishingiz kerak. Avtomobil burilish chirog‘ini yoqib kelayotgan bo‘lsa, yaxshisi uni o‘tkazib yuboring. Yo‘ldan o‘tish xavfsizligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin o‘ting.

## 4-MASHG‘ULOT


### YO‘LNING QATNOV QISMIDAN O‘TISH QOIDALARI

#### 1-Topshiriq

Rasmlarga qarang: 1-belgilangan, 2-boshqarilmaydigan, 3 va 4-boshqariladigan piyodalar o‘tish joylari.

Savollarga javob bering.

Rasmlarga qarab, yo‘lning qatnov qismidan qanday o‘tish kerakligi haqida gapirib bering.




Rasmdagi o‘tish joyi qanday belgilanligini yozing.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_




Yo‘ldan qanday o‘tish kerakligini ayting.



Rasmdagi chorraha nimalar bilan, qanday boshqarilayotgani haqida gapirib bering.

---



Transport vositalari va piyodalar harakatini kim boshqarishi mumkin?

Yozing. \_\_\_\_\_

---

## 2-Topshiriq

Qoidalarni o'qing, nima uchun ularga rioya qilish zarurligini gapirib bering.

### 1-QOIDA

Piyodalar o'tish joyidan yo'ldan o'tishdan avval trotuar chetida to'xtab, bordyuerni bosmasdan chapga, keyin o'ngga qarab, yana bir marta chapga qarang, yaqinlashayotgan transport vositalari yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Agar yo'ldan o'tishga ulgurmay qolsangiz, yo'l o'rtasidagi yo'lni ajratuvchi chiziq ustida to'xtang, orqaga ham, oldinga ham yurmay, avtomobillar o'tib ketishini kutib turing. Yo'lning qatnov qismi bo'shagandan so'ng, o'tish joyining yarmini bosib o'ting.

Ushbu qoidani yodda saqlash uchun, kitobni yopib, uni yana bir bor eslang. Keyin qoidani o'qib, yodinizda qolguncha takrorlang. Buning uchun harakatlaringiz ketma-ketligini eslang: 1-to'xtash; 2-har tomonga qarash; 3-xavf yo'qligiga ishonch hosil qilish; 4-yo'ldan o'tishni boshlash.

E'tiborli bo'ling, agar avtomobillar uzoqroqda bo'lsa, o'tish joyida to'xtamay yo'lni kesib o'ting!

### 2-QOIDA

Yaqin orada piyodalar o'tish joyi bo'lmasa, yo'lning qatnov qismini to'siqlar uchramaydigan, yo'l yaxshi ko'rinib turgan joydan, yaqinlashib kelayotgan avtomobillar bo'lmasa, to'g'ri burchak bo'ylab kesib o'tish mumkin.

Ushbu qoidani eslab qolish uchun, uni yana bir bor o‘qib, yoddan takrorlang. Buning uchun yo‘lning qatnov qismini to‘g‘ri burchak bo‘ylab, har tomon yaxshi ko‘rinib turgan joydan o‘tayotganingizni tasavvur qiling. Shunda bu qoidani yodda tutasiz.

### 3-Topshiriq

Yo‘lning qatnov qismidan qanday o‘tish haqida gapirib bering:

—bir tomonlama transport harakatlanadigan yo‘ldan;

—ikki tomonlama transport harakatlanadigan yo‘ldan;

—tramvay yo‘liga ega harakat qismidan;

—shahardan tashqaridagi yo‘ldan.

### 4-Topshiriq

Bir tomonlama transport harakatlanadigan yo‘ldan, piyodalar uchun o‘tish joyidan, «zebra» chizig‘idan o‘tmoqchisiz, chap tomonda avtomobillar yo‘q, lekin o‘ng tomondan birdan «Tez yordam», «O‘t o‘chirish» yoki militsiya avtomobillari chiroqlarini yoqib, ovoz chiqarib kelayotganini ko‘rib qolsangiz, nima qilasiz?

Javobingizni yozing:

---

---

---

---

---

---

---



---

## 5-MASHG'ULOT

### AVTOMOBILNING TORMOZLANISH VA TO'XTASH YO'LI

#### 1-Topshiriq

Avtomobilning to'xtash yo'li haqida nimalarni bilasiz? Rasm ostidagi chizmaga to'xtash yo'li qanday qismlardan iborat ekanligini yozing.



## 2-Topshiriq

Avtomobil yo'lda harakatlanayotganini tasavvur qiling. Haydovchi yo'ldan o'tayotgan piyodani ko'rib qoldi. Piyoda goh yurib, goh to'xtab yo'ldan o'tmoqchi bo'lmoqda. Unga yaqinlashayotgan haydovchi to'xtash yoki aylanib o'tish haqida o'yladi. Piyoda o'zini qanday tutishini bilmagan haydovchi, avtomobilni to'xtatdi.

**1-MASALA.** Avtomobil soatiga 54 km tezlikda harakatlanmoqda. Haydovchi piyodani 50 m. uzoqlikdan ko'rdi. Uning sezgirligi – 0,4 s. Tormozni bosishiga – 0,5 s. ketadi. Quruq asfalt yo'lda bu yengil avtomobilning tormozlanish yo'li 16 m.ga teng.

Yechim: Avtomobil 1 s.da qancha yo'l bosib o'tishini aniqlaymiz. Bilasizki, 1 km.da 1000 m.bor, bir soat 60 minutdan iborat, 1 minut esa 60 sekundga teng.

$$54\text{km/s} = \frac{54 \times 1000}{60 \times 60} = \frac{54000}{3600} = \frac{540}{36} = 15 \text{ m/s}$$

2. Haydovchi 0,4 sekundda ta'sirlanadi. Shu vaqt ichida avtomobil qancha yo'lni bosib o'tishini hisoblaymiz:

$$15 \text{ m/s} \times 0,4 \text{ s} = 6 \text{ m.}$$

3. Endi tormozlanish yo'lini aniqlaymiz:

$$15 \text{ m/s} \times 0,5 \text{ s} = 7,5 \text{ m.}$$

4.To'xtash yo'li uzunligini hisoblaymiz:

$$6\text{m}+7,5\text{m}+16 = 29,5 \text{ m.}$$

Haydovchi ta'sirlangan vaqtdagi yo'l + tormoz bosish uchun ketgan vaqtdagi yo'l + tormozlanish yo'li = to'xtash yo'li uzunligi.



5. Haydovchi piyodani 50 m. uzoqlikdan ko'rgani uchun, to'xtash yo'li 29,5 m.g.a teng, demak, haydovchi piyodadan 20,5 m. uzoqlikda to'xtaydi.

**2-MASALA.** Hisoblab ko'ring, agar avtomobil haydovchisining ta'sirlanish vaqti 2 s. bo'lsa, piyodani urib yuborishi mumkinmidi?

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

4. \_\_\_\_\_

5. Javob: \_\_\_\_\_

**3-MASALA.** O'ylab ko'ring, yomg'ir yog'ib turgan vaqtda, haydovchi 1 s.da piyodani ko'rsa, qanday holat yuz beradi? Ho'l asfaltda yengil avtomobil soatiga 54 km. tezlikda kelayotgan bo'lsa, uning tormozlanish yo'li 29 m.g.a teng. Shu holatda to'xtash yo'lining uzunligini hisoblang.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

4. \_\_\_\_\_

5. Javob: \_\_\_\_\_

## **SIZ BUNI BILISHINGIZ KERAK!**

Yo'lning qatnov qismida to'satdan piyoda paydo bo'lsa, yaxshi ta'sirlanishga ega tajribali haydovchi ehtiyot choralarini qilishi kerak. Agar buni kechikib bajarsa yoki piyoda kutilmagan harakatlarni qilsa, albatta to'qnashuvdan qochib qutulib bo'lmaydi.

## **DOIMO YODDA TUTING!**

Yo'lning qatnov qismida turganingizda esdan chiqarmang, avtomobil darhol to'xtay olmaydi.

Avtomobilning tormozlanish yo'li uzunligi nimalarga bog'liq, o'qing va yodda saqlang.

Birinchi, avtomobilning harakat tezligiga.

Ikkinchi, avtomobilning og'irligiga: yengil avtomobillarga nisbatan, yuk transportlari, avtobuslar, ya'ni katta mashinalarda, tormoz yo'li uzunligi katta.

Uchinchi, ob-havo sharoitiga: ho'l, sirpanchiq yo'lda g'ildirakning yo'l bilan tortishish kuchi kamayadi va tormoz yo'li uzayadi.

To'rtinchi, tormoz tizimi va g'ildiraklar shinasini yedirilish holatiga.

Beshinchi, yo'llarning yoritilishi va boshqa faktorlarga.


**XULOSA:** agar tormoz yo'li uzaysa, haydovchining to'siqlarga ta'sirlanishi va to'xtash yo'li uzunligi o'sadi.

## 6-MASHG'ULOT

### TEMIR YO'LNI KESIB O'TISH QOIDASI

#### 1-Topshiriq

Rasmga qarang. Temir yo'lda qanday xavf paydo bo'lishi mumkinligini tushuntiring. Temir yo'l kesishmalarida o'zini qanday tutish kerakligini aytib bering.



## 2-Topshiriq

Temir yo‘lga aloqasi bo‘lgan ogohlantiruvchi yo‘l belgilarini chizing va ularning tagiga nomlarini yozing.



### **XAVF-XATARNI YODDA TUTING!**


Temir yo‘llarda poyezdlar o‘ngdan va chapdan paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, temir yo‘lda turganda, doimo hamma tomonga qarash va quloq solish kerak. Temir yo‘lni, albatta, qoidaga rioya qilgan holda kesib o‘tish lozim.

## 7-MASHG‘ULOT

### VELOSIPEDDA YURISH QOIDASI

#### 1-Topshiriq

«Yo‘l harakati qoidasi»da ko‘rsatilganidek, velosipedda yurishi mumkin bo‘lgan qiz va o‘g‘il bolalarning rasmini bo‘yang. Ularning ismlarini yozing.



## 2-Topshiriq

Malika, Siroj, Yunus, Nodir, Kamola va Iroda velosipedda, shu bilan birga rolikli konki, samokat, chang'i, skeytbordlarda qayerda uchishlari mumkinligini yozing.

1.

---

2.

---

3.

4.

5.

Endi bolalarning rasmlarini bo‘yang.

### 3-Topshiriq

Velosipedda uchganda nimalar qilish mumkin emasligini yozing.

1.

2.

3.

### 4-Topshiriq

Bu yo‘l belgilari qanday ataladi va ular nimani bildiradi?



1.



2.

Yozing:

1.


2.

## 8-MASHG‘ULOT

### TRANSPORT VA TO‘XTASH JOYLARIDA YO‘LOVCHILARNING O‘ZLARINI TUTISH QOIDALARI

#### 1-Topshiriq

Rasmdagi avtobus va trolleybuslar to‘xtash joyiga qarang. Bu yo‘l belgisi qanday ataladi? Avtobusda bolalar o‘zlarini to‘g‘ri tutishayaptimi?



## 2-Topshiriq

Haydovchi va mototsikl yo'lovchisida qaysi bosh kiyimlari bo'lishi kerak?



Ularning nomlarini yozing: \_\_\_\_\_

## 2-Topshiriq


Gapning davomini yozing.

12 yoshga qadar bolalar avtomobilda \_\_\_\_\_  
o'rindiqda o'tirishlari kerak.

\_\_\_\_\_ yoshdan boshlab yo'llarda mopedda yurish  
mumkin.



## 4-Topshiriq



Rasmga qarab gapirib bering:

—Yo‘nalishli transportga qaysi transport turi kiradi?

—Yo‘nalishli transportlarda eshiklar qaysi tomonda joylashgan va nimaga?

—Transportda yo‘lovchi bolalar o‘zlarini qanday tutishlari kerak?

—Yo‘lovchilarga nimalar qilish taqiqlanadi?

—Yo‘nalishli transportga yo‘lovchilarni chiqarish va tushirishni qachon amalga oshirish mumkin?

## 5-Topshiriq

Bu qoidani eslab qoling.

**Orqadan ham, oldindan ham transportni kesib o‘tish mumkin emas.**

Yo‘nalishli transportdan tushishda, agarda yo‘lning qarama-qarshi tomoniga o‘tish kerak bo‘lsa, transport ketishini kutib turing. Yaqin atrofda piyodalar yo‘lkasi bo‘lsa, undan o‘ting. Agarda bo‘lmasa, unda boshqa yo‘lovchilar bilan birgalikda yo‘lni kesib o‘ting yoki kattalardan o‘tkazib qo‘yishni iltimos qiling.

QOIDAda yozilganidek, nima uchun bunday qilish kerakligini tushuntirib bering. Bu QOIDAni doimo eslab qolish uchun, tekstni qog‘oz bilan yoping, eslab qolganlaringizni, yoddan, ovoz chiqarib qaytaring. Agarda buni darhol bajara olmasangiz, uni eslab qol-gunga qadar, bir necha marta takrorlang.

## 6-Topshiriq



Rasmga diqqat bilan qarang. Unda nima tasvirlan-gan? Uning nomini kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

## **BU QOIDALARNI YODDA TUTING!**

1.Metro eskalatorida harakatlenganda doimo suyanchiqni ushlab turish kerak.


2.Eskalator zinasining o'ng tomonida turish, sariq chiziqni bosmaslik zarur.

3.Eskalatorning faqat chap tomonidan yurish mumkin.

4.Eskalatordan tushishda albatta oyoq tagiga qarash va oxirgi zinadan hatlab o'tish kerak.

### **7-Topshiriq**


Rasmda ko'rsatilgan elektropoyezdni kutib turganda, o'tish mumkin bo'lmagan chiziqlarni qizil rang (flomaster yoki qalam)da bo'yang. Nima uchun, tushuntiring?



## 8-Topshiriq

Krossvordni yeching.

1. Piyoda ketayotgan odam.
2. Transport turi.
3. Ikki g'ildirakli transport.
4. G'ildirakli transport turi.
5. Yo'nalishli transportlarda yo'lovchilar chiqish va tushishni amalga oshiradigan joy.
6. Piyodalar harakatlanish joyi.
7. Harakatni tartibga soluvchi qurilma.



## 9-MASHG'ULOT

### MEN – PIYODAMAN

#### 1-Topshiriq

Shahar (qishloq) bo'ylab sayohatda nimalarni ko'rganingizni eslang.

Sizda nimalar ko'proq taassurot qoldirdi? Ular haqida yozing.

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---


---

---

---

## 2-Topshiriq

«MEN – PIYODAMAN» rasmini chizing.




## YOSH DO‘STIM!

Ko‘chalar va yo‘llarda xavfsiz harakatlanishda o‘zingizning qobiliyatingiz, bilimingiz, mahorat-ingizni baholab ko‘ring.

Agarda Siz bu kitob-daftarchadagi hamma masalalarni o‘zingiz bajargan bo‘lsangiz – uchta doirani xohlagan rangingizda bo‘yang.

Agarda kattalar biroz qarashgan bo‘lsalar – unda ikkita doirani.

Agarda ba‘zi bir masalalarni bajara olmagan bo‘lsangiz, unda – bitta doirani bo‘yang.



Agarda Sizga masalalar qiyinchilik tug‘dirayotgan bo‘lsa, o‘qituvchingiz yoki kattalardan yordam so‘rang.

**Sizga yo‘llarda xavfsizlik va quvnoq ta‘til tilaymiz!**



Q.KARIMOVA

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI

4-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN  
AMALIY MASHG‘ULOTLAR  
DAFTARI

Muharrir: Adiba Hamro qizi  
Texnik muharrir: Muhriddin Hamroyev  
Dizayner, sahifalovchi: Eldor Karimov  
Musahhih: Suxrobbjon Avvalboyev

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.  
Bosishga ruxsat etildi: 13.05.2013 yil.  
Shartli bosma tabog‘i: 2,5. Nashr tabog‘i: 1,5.  
Bichimi: 84x108 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Respect garniturasida. Ofset bosma.  
Adadi: 3000.  
22-12 — buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili:  
«Yurist-media markazi» nashriyoti,  
Toshkent shahri, Otchopar ko‘chasi, 82-uy.  
Tel.: 230-04-74, (+99894) 181-27-80.  
E-mail: yurist\_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:  
Toshkent sh., Kichik Xalqa yuli  
MChJ «Exclusive print»  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosishga ruxsat etildi: 27.06.13 y.  
Adadi: 3000 nusxa. Buyurtma № 183